

GENDER TENGLIK HAMDA VA UNI OILAVIY QADRIYATLAR BILAN UYG‘UNLASHUVI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-745-747>

Saodatxon Usmanova Umarovna

Namangan davlat universiteti dotsenti

info@namdu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada gender tenglikni ta'minlashning normativ-huquqiy asoslari hamda uning oilaviy qadriyatlar bilan uyg'unlashuvi ilmiy-nazariy jihatdan ko'rib chiqiladi va uni tahlil qilinadi. O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka oid qonunchilik, davlat siyosati va xalqaro huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati yoritib beriladi. Shuningdek, gender tenglik tamoyillarining oila instituti, oz'bek milliy an'analar va qadriyatlar bilan o'zaro bog'liqligi to'laqonli ochib berishga erishiladi [1], [3]. Tadqiqot yakunida gender tenglik oilaviy munosabatlarda xamjixatlik, adolatlilik, mas'uliyat xamda barqarorlikni ta'minlovchi omil ekanligi asosli tarzda yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Oila, tenglik tushunchasi, gender tenglik, oila instituti, oilaviy axillik, qadriyatlar, yo'qolib borayotgan udumlar, davlat siyosati, inson huquqlari, ijtimoiy barqarorlik.

Abstract: This article examines, from a scientific and theoretical perspective, the normative and legal foundations of ensuring gender equality and its harmonization with family values. The content and significance of the legislation, state policy, and international legal instruments related to gender equality in the Republic of Uzbekistan are analyzed. In addition, the interrelationship between the principles of gender equality and the institution of the family, Uzbek national traditions, and values is comprehensively explored. The study concludes that gender equality is a key factor in ensuring harmony, justice, responsibility, and stability in family relations.

Keywords: Family, concept of equality, gender equality, family institution, family harmony, values, disappearing traditions, state policy, human rights, social stability.

Аннотация: В статье с научно-теоретических позиций рассматриваются нормативно-правовые основы обеспечения гендерного равенства и их гармонизация с семейными ценностями. Анализируются содержание и значение законодательства, государственной политики и международных правовых документов в сфере гендерного равенства в Республике Узбекистан. Также всесторонне раскрывается взаимосвязь принципов гендерного равенства с институтом семьи, узбекскими национальными традициями и ценностями. В заключении обосновывается, что гендерное равенство является важным фактором обеспечения согласия, справедливости, ответственности и устойчивости в семейных отношениях.

Ключевые слова: Семья, понятие равенства, гендерное равенство, институт семьи, семейное согласие, ценности, исчезающие традиции, государственная политика, права человека, социальная стабильность.

Hozirgi jadal tezlikda rivojlanib borayotgan bizning davrda gender tenglik masalasi global miqyosda muhim ijtimoiy-siyosiy va huquqiy muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Gender tenglik jamiyatda erkaklar va ayollarning teng huquq va imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu jarayon

inson huquqlarining ajralmas qismi hisoblanadi[1], [3]. Shu bilan birga, gender tenglik masalasi milliy qadriyatlar, ayniqsa, oila instituti bilan uzviy bog‘liq holda qaralishi zarur. [4]

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida gender tenglikni ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ushbu jarayonda normativ-huquqiy asoslarning xaqqoniyligi va ularning oilaviy qadriyatlar bilan moslashganligi juda muhim ilmiy muammo sifatida dolzarbdir[2].

Gender tengligi va jinsiy tenglik, aniqrog‘i: erkaklar va ayollar o‘rtasidagi tenglik — bu oilada va jamiyatda erkaklar va ayollar o‘rtasida teng huquqlarga erishishni nazarda tutadigan tushuncha va boshqa qonuniy munosabatlardir[3]. Demak erkaklar va ayollarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha sohalarida teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishi tushuniladi. Bu tushuncha biologik farqlardan qat’i nazar, shaxsning jamiyatdagi mavqeini belgilashda adolat tamoyiliga asoslanadi[5].

Ilmiy adabiyotlarda gender tenglik nafaqat huquqiy tenglik, balki real imkoniyatlar tengligi sifatida ham talqin qilinadi. Ya’ni, qonuniy kafolatlar bilan bir qatorda, ularning amalda ta’minlanishi muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikning huquqiy asosi eng avvalo Konstitutsiyada mustahkamlangan. Unda barcha fuqarolarning jinsi, irqi va boshqa belgilaridan qat’i nazar teng huquqliligi kafolatlanadi. Ushbu konstitutsiyaviy norma gender tenglikni ta’minlashning asosiy poydevori hisoblanadi[1].

Shuningdek, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun gender tenglik sohasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi muhim hujjatdir. Mazkur qonun davlat organlari, ta’lim muassasalari va boshqa institutlar zimmasiga gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha aniq majburiyatlar yuklaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining ayollar huquqlariga oid xalqaro konvensiyalariga qo‘shilgan bo‘lib, bu holat milliy qonunchilikning xalqaro standartlarga mosligini ta’minlaydi. [3]

Oila jamiyatning eng muhim ijtimoiy instituti bo‘lib, unda shaxsning ma’naviy, axloqiy va ijtimoiy kamoloti shakllanadi. Gender tenglikning oiladagi namoyon bo‘lishi er-xotin o‘rtasidagi o‘zaro hurmat, mas’uliyat va hamkorlikka asoslanadi[4].

Gender tenglik oilaviy rollarni inkor etmaydi, balki ularni adolatli taqsimlashni nazarda tutadi. Bu esa oilada sog‘lom muhitning shakllanishiga, nizolarning kamayishiga va farzand tarbiyasining samaradorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi[5].

Milliy qadriyatlarimizda oila muqaddas maskan sifatida e’tirof etiladi. Mehr-oqibat, kattaga hurmat, kichikka izzat kabi tamoyillar oilaviy munosabatlarning asosini tashkil etadi. Gender tenglik ushbu qadriyatlarga zid emas, balki ularni zamonaviy ijtimoiy talablar bilan uyg‘unlashtiradi.

Gender tenglik asosida qurilgan oilada ayol va erkakning jamiyatdagi faolligi oshadi, bu esa oila farovonligiga xizmat qiladi. Shu sababli gender tenglikni oilaviy qadriyatlar bilan uygʻun holda joriy etish muhim ijtimoiy vazifadir.

Xulosa qilib aytganda, gender tenglikni taʼminlashning normativ-huquqiy asoslari bizni demokratik davlatimizda izchil shakllanib bormoqda [2]. Albatta ushbu jarayon oilaviy qadriyatlar bilan uygʻunlashgan holda amalga oshirilgandagina barqaror va samarali natija beradi. Baʼzi bir xuquqiy, siyosiy bilimi past kishilar taʼkidlaganidek gender tenglik oilaning zaiflashishiga emas, balki uning yanada mustahkamlanishiga, oilada xamjixatlikda, bir-birini tushinib, qoʻllab-quvvatlab xayot kechirishiga xamda jamiyatda ijtimoiy adolat va barqarorlikning taʼminlanishiga xizmat qiladi [4].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi nashri, 2023.
2. Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari toʻgʻrisida”. – 2019-yil 2-sentabr, OʻRQ–562-son. – Toshkent.
3. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Ayollarga nisbatan kamsitishning barcha shakllarini bartaraf etish toʻgʻrisidagi Konvensiya (CEDAW). – 1979-yil 18-dekabr, Nyu-York.
4. Muallif(lar) koʻrsatilmagan. Oʻzbek oilalarida yoshlarning oilaviy tarbiya haqidagi tushunchalarini boyitishning oʻziga xos xususiyatlari. – Impuls tibbiyot instituti ilmiy jurnali. – 2025. – №4.